



Axborot xabarnomamizning beshinchi soniga xush kelibsiz!

Bu [Yevropa Ittifoqining](#) (YI) “[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini qo'llab-quvvatlash](#)” loyihasi doirasidagi o'n yettinchi sonli Axborot Xabarnomasidir. Ushbu loyiha [Xalqaro Savdo Markazi](#) (ITC) tomonidan amalga oshirilmoqda va O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini kuchaytirishni maqsad qilgan.

Ushbu son 2024-yilning oktabr-dekabr oylarida amalga oshirilgan loyiha faoliyatini qamrab oladi. Ushbu chorakdagi asosiy voqealardan biri O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonidagi yangi yutuq bo'ldi — 2024-yil oktabr oyida Ishchi guruhi hisoboti loyihasi e'lon qilindi. Bu muhim bosqich 2024-yil 5-6 dekabr kunlari Jenevada bo'lib o'tgan 9-Ishchi guruhi yig'ilishi bilan davom etdi, va unda ushbu hisobot muhokama qilindi. 2024-yil dekabr oyining oxiriga kelib, O'zbekiston 22 ta mamlakat bilan ikki tomonlama bozorga kirish bo'yicha muzokaralarni muvaffaqiyatli yakunladi. Shuningdek, O'zbekistonning Hayvonlar salomatligi to'g'risidagi qonun loyihasi yuzasidan tahlil yakunlandi va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligiqo'mitasi so'roviga binoan, O'zbekistonning oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha laboratoriya tizimi o'rganilib, uni samarali tashkil etish va optimallashtirish bo'yicha tahlil o'tkazildi. Shu jarayon doirasida 37 nafar laboratoriya texniklari va xodimlari xalqaro standartlar doirasida laboratoriya akkreditatsiyasi bo'yicha bilimlarini oshirish uchun o'qitildi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу обунани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

Mamlakat JSTga qo'shilganda, uning amaldagi savdo va iqtisodiy qonunlari hamda siyosatlari a'zolik bo'yicha muzokaralarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Loyiha O'zbekistonga muzokara pozitsiyalarini tayyorlash va JSTga a'zo bo'lish hujjatlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Ushbu doimiy qo'llab-quvvatlash natijasida 2024-yil oktabr oyida JST Kotibiyati tomonidan Ishchi guruhi hisoboti loyihasi e'lon qilindi. Bu O'zbekiston uchun muhim yutuq bo'lib, ushbu hisobot mamlakatning tovarlar va xizmatlar bozoriga kirish takliflari bilan birgalikda JSTga a'zo bo'lishning yakuniy hujjatlar to'plamiga kiritiladi. Hisobot 2024-yil 5-6 dekabr kunlari Jenevada bo'lib o'tgan 9-Ishchi guruhi yig'ilishida JST a'zolari bilan muhokama qilindi, va loyiha O'zbekiston delegatsiyasining ushbu yig'ilishda ishtirok etishiga ko'mak berdi. Shu chorak davomida JST a'zo davlatlari bilan olib borilgan ikki tomonlama muzokaralar sezilarli darajada ilgari surildi. 2024-yil dekabr oyining oxiriga kelib, 22 ta JST a'zosi bilan tovarlar va xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha muzokaralar yakunlandi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lish uchun, kirayotgan mamlakat mavjud milliy qonunlarini JST kelishuvlariga moslashtirishi kerak, bu esa uning qonunlarini ko'rib chiqishni talab qiladi. Bizning loyihamiz O'zbekistonni ushbu yo'nalishda ham, , mamlakat qonunchiligiidagi o'zgarishlarning uning savdo-iqtisodiy sohasiga ta'sirini baholashda ham yordam bermoqda.

Foydalanuvchidan kelgan so'rov asosida loyiha iyul oyida O'zbekistonning iqtisodiyotiga JST a'zolidan qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini baholash bilan boshlandi. Tadqiqot 2025 yilning birinchi choragida tugatilib, natijalari kutilmoqda. Tadqiqot savdo tendentsiyalarini, savdo siyosati o'zgarishlarining ta'sirini, mahsulot darajasidagi tarif stavkalaridagi o'zgarishlarning potentsial ta'sirini va bunday o'zgarishlarning umumiy iqtisodiy ta'sirini aniqlash uchun qisman va umumiy muvozanat modellaridan foydalanilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot JST a'zolidankelib chiqadigan eksport o'sishining imkoniyatlarini ham baholamoqda. Tadqiqotnatijalari O'zbekistonning muzokaralar pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Buning ustiga, u O'zbekiston global iqtisodiyotga qo'shilgandan so'ng eksportnirag'batlantirish rejasini tuzishga va ochiq savdo sharoitida tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rishga imkon beradi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

JST kelishuvlarining texnik jihatdan talablarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish mamlakatning JST ga a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlashning asosiy tamoyili hisoblanadi. Ushbu loyiha hukumat idoralarida JST kelishuvlari va a'zolikning texnik jihatlari bo'yicha zaruriy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi, bu maqsadda treninglar va texnik yordam ko'rsatiladi.



O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha bosh muzokarachisi Azizbek Urunov (chapda) 2024-yil Jenevada bo'lib o'tgan 9-Ishchi guruhi yig'ilishida XSM jamoasi bilan suratga tushgan. Ushbu jamoa loyiha amalga oshirilishiga rahbarlik qilmoqda: Jean-Sébastien Roure – Savdo va investitsiyalar strategiyasi hamda siyosati bo'yicha bosh mutaxassis (Bozor rivojlantirish bo'limi) va Daria Karman – Markaz dasturlari koordinatori.

Foto: XSM

JST qoidolari bo'yicha bilim darajasini oshirish maqsadida, loyiha o'tgan chorakda Shveysariyaning Bern shahridagi Jahon Savdo Instituti tomonidan 2025 yil yanvar va fevral oylarida o'tkaziladigan Qishki Akademiya kurslariga nomzod sifatida oltita hukumat vakillarini ro'yxatdan o'tkazish uchun tayyorgarlik ishlarini amalga oshirdi.

Ularning orasida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha Bosh muzokarachisi Azizbek Urunov ham bo'lib, u «Antidemping va muhofaza choralarining huquqi va siyosati» mavzusidagi kursda ishtirok etishi rejalashtirilgan. Boshqa xodimlar qatnashadigan kurslar «Chegaradagi savdo choralari va savdo-sotiqni soddalashtirish huquqi va siyosati», «Subsidiyalar va kompensatsiya charolari huquqi va siyosati» hamda «Xizmatlar savdosi huquqi va siyosati» ni o'z ichiga oladi.

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

O'zbekistonning STT va SFS bilan bog'liq institutlarini JST qoidalariga muvofiq ravishda qo'llab-quvvatlash maqsadida loyiha ushbu murakkab mavzularda faoliyatlarini davom ettirdi va o'qitishni amalga oshirdi.

Hisobot davrida loyiha O'zbekistonning Veterinariya to'g'risida"gi qonunining loyihasini ko'rib chiqish va yakunlash bo'yicha keng qamrovli texnik yordamni tugatdi. Maqsad ushbu qonunni JSTning SFS kelishuvi, Codex Alimentarius va Butunjahon hayvonlar salomatligini muhofaza qilish tashkiloti (OIE)ning Yer Ustidagi Hayvonlar Sog'ligi Kodeksiga moslashtirish edi. Loyiha zamonaviy rivojlanishlarga, ayniqsa ma'lumot almashish, transchegaraviy hayvon kasalliklariga qarshi birgalikda javob berish va antimikrob preparatlargachidamlilik masalalariga oid qonun normalarini takomillashtirishbo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Loyiha shuningdek davlat veterinariya nazorati xizmatlari ostida tovarlarni eksport qilish, import qilish va tranzit qilish bilan bog'liq qonunchilikni ko'rib chiqishga yordam berdi.

Veterinariya sertifikatsiyasining ekvivalentligini tan olinishi va savdo hamkorlari bilan o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtirishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berildi.

O'simlik sog'lig'i sohasida loyiha oxirgi chorakda O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan so'ralgan holda yettita qonun hujjatini qayta ko'rib chiqishni boshladi. Ushbu qonunlar O'zbekistonning o'simliklar va o'simlik mahsulotlarini import nazorati tizimini shakllantiradi.

Qayta ko'rib chiqishdan ko'zlangan maqsad - import nazorati tizimini SFS kelishuvi va boshqa tegishli xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishdir. Salohiyatni oshirish yo'nalishi doirasida loyiha Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining tomonidan so'ralgan holda O'zbekistonning oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini sinov o'tkazish tizimini tuzilmasiga ekspert bahosi berish tashabbusi ilgari surildi.

Hozirgi kunda bu sinov bir qancha turli idoralar tasarrufidagi laboratoriyalar tomonidan tekshirilmoqda. Yakuniy maqsad esa tizimni optimallashtirish, uning samaradorligini oshirish, va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashdir. Loyiha baholashni ikki bosqichda amalga oshirdi.

Birinchi bosqichda 26 laboratoriya orqali to'plangan ma'lumotlardan foydalanib uchta asosiy oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini sinovdan o'tkazuvchi laboratoriyalar belgilandi. Ikkinchi bosqichda esa 10-18 oktyabr kunlari ushbu tanlangan laboratoriyalarga joyiga tashrif buyurib, hamda ularning tegishli xalqaro standartlarga muvofiqligi baholandi.

Shuningdek, tanlangan oziq-ovqat mahsulotining sinov laboratoriyalarining 37 nafar texnik mutaxassisi va xodimlari uchun 15-16 oktyabr kunlari xalqaro standart talablariga muvofiq laboratoriya akkreditatsiyasi bo'yicha trening o'tkazildi. Bu ularga sifat menejmenti, hisob va hujjat yuritish, sinov protokollari hamda standart operatsion protseduralar haqida bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam berdi.

Fitosanitariya inspektorlari va O'simliklarni himoya qilish va karantin agentligi (O'XKXA) rasmiylari uchun Milliy fitosanitariya eksport sertifikatlashtirish tizimi bo'yicha seminar tashkil etdi.

O'quv mashg'ulotlari 2024-yil 2-5-noyabr kunlari Toshkent shahridagi O'XKXA idorasida bo'lib o'tdi va eksport sertifikatsiyasining ro'yxatdan o'tkazish, sertifikatlash, kuzatuvchanlik va inspektsiya nazorati masalalarini qamrab oldi.



Toshkentdagi seminar davomida oziq-ovqat tahlil laboratoriyalarining texniklari ISO/IEC 17025:2017 xalqaro standartining talablariga muvofiq laboratoriya akkreditatsiyasi haqida ma'lumot berishdi.

Foto: XSM

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadi xususiy sektor uchun JSTga a'zo bo'lishdan kelib chiqadigan imkoniyatlar to'g'risida xabardorlikni oshirishga yordam berishdir. Mamlakatning turli hududlarida tashkil etilgan xususiy sektor ishtirokchilari uchun qishloq xo'jaligi savdosi bo'yicha xabardorlikni oshirishga qaratilgan keng qamrovli seminar seriyasi o'tgan yili o'tkazildi. Xususiy sektorga ko'rsatiladigan qo'shimcha yordam parametrlari milliy hamkorlar bilan muhokama qilinadi.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)